



ELEKTRON PULLARDAN FOYDALANISH QULAYLIGI NIMADA?

Muxammadiyev Kamoliddin G‘ulomiddinovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Bank ishi” kafedrası assistenti

e-mail: komiljon8600uz@gmail.com

G‘ayratov Abbos Yoqubjon o‘g‘li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Iqtisodiy xavfsizlik” yo‘nalishi talabasi

e-mail: abbosgayratov4@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bir paytda, elektron pullar kundalik hayotimizda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy naqd pullarga nisbatan elektron to‘lov tizimlari ko‘plab qulaylik va imkoniyatlarni taqdim etadi. Mazkur ilmiy maqolada elektron pullardan foydalanishning qulay tomonlari, ularning afzalliklari hamda zamonaviy iqtisodiyotda tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu to‘lov vositalarining salbiy jihatlari, xavfsizlikka oid masalalar va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli risklar ham ko‘rib chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi — elektron pullarning samaradorligi va ishonchliligini baholash orqali ularning jamiyatdagi roli va istiqbolini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: Elektron pullar, raqamli to‘lovlar, moliyaviy texnologiyalar, elektron pullar risklari, tranzaksiyalar, onlayn to‘lov,



Bugungi raqamli asrda moliyaviy texnologiyalar jadal rivojlanmoqda. Ana shunday yangiliklardan biri — elektron pullar (ya'ni raqamli shakldagi to'lov vositalari) bo'lib, ular nafaqat zamonaviy hayotni yengillashtirmoqda, balki iqtisodiy faoliyatda samaradorlikni oshirishda ham muhim o'rin tutmoqda.

Elektron pullar — bu foydalanuvchining bank hisobvarag'iga yoki maxsus elektron hamyonga bog'langan raqamli to'lov vositasidir. Ular orqali tovar va xizmatlar uchun onlayn yoki QR-kod orqali to'lovlar amalga oshiriladi. Bunday to'lovlar quyidagi vositalar orqali amalga oshiriladi:

- Mobil ilovalar (Click, Payme, Bank ilovalari va boshqalar)
- Internet-banking
- Elektron hamyonlar
- Kontaktless (teginishsiz) kartalar

Elektron pullarning salbiy va ijobiy tomonlari ?

Ma'lumki, elektron pullardan foydalanishning ko'plab foydalari va qulayliklari mavjud. Biroq, har qanday innovatsion texnologiya singari, ularning ham ayrim xavf-xatar va risklari bor. Tangani ikki tomoni bo'lgani kabi, elektron pullar ham ijobiy va salbiy jihatlarga ega. Shunga qaramay, globallashtiruv va tezlashgan raqamli zamonda zamonaviy texnologiyalardan foydalanmaslik o'z-o'zidan bir qancha noqulayliklarga sabab bo'lmoqda.

Quyida elektron pullardan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlari yoritib o'tiladi.

Elektron pullarning ijobiy tomonlari

1. To'lovlarni tez va samarali amalga oshirish



Elektron to'lovlar soniyalar ichida amalga oshadi, bu esa vaqt va resurs tejallishiga olib keladi.

2. Katta summadagi mablag'larni qulay tarzda boshqarish

Plastik karta, mobil telefon, yoki hozirgi zamonaviy texnologiyalar — yuz va kaft orqali to'lov imkoniyatlari mavjud.

3. Arzonligi

Elektron to'lovlar ko'pincha bank xizmatlari yoki naqd operatsiyalarga nisbatan arzonroq bo'ladi.

4. Masofadan turib to'lov amalga oshirish imkoniyati

Uyda, ishda yoki safarda bo'lishingizdan qat'i nazar, har qanday joydan turib to'lovlarni bajarish mumkin.

5. Moliyaviy nazorat va tahlil qilish qulayligi

Har bir operatsiya raqamli tarzda qayd etiladi, bu esa xarajat va daromadlar tahlilini yengillashtiradi.

6. Atrof-muhitga nisbatan kamroq zararli

Naqd pullar ishlab chiqarish, tashish va saqlash ekologik jihatdan ko'proq resurs talab qiladi. Elektron pullar esa ushbu bosqichlarni kamaytiradi.

7. Gigiyenik talablar



Naqd pulga nisbatan kamroq qo'llaniladigan vosita bo'lib, infeksiyon kasalliklar tarqalishining oldini olishda yordam beradi.

8. Davlat xarajatlarining kamayishi

Naqd pullarni bosib chiqarish va muomalada saqlash xarajatlari kamayadi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

9. Shubhali va noqonuniy operatsiyalarni kuzatish imkoniyati

Elektron tranzaksiyalarni izlash va monitoring qilish osonroq bo'ladi.

10. Soliqdan qochish va yashirin iqtisodiyotning oldini olish

Elektron to'lovlar shaffoflikni oshirib, fiskal nazoratni kuchaytiradi.

11. Raqamli integratsiyaga yo'l ochadi

Mobil ilovalar, fintech xizmatlar, blokcheyn texnologiyasi va sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar bilan integratsiyalashuv mumkin.

12. Naqd soxta pullar muomilga chiqishi cheklanishi.

Elektron pullarning salbiy tomonlari

1. Texnik nosozliklar va tizimdagi bazi xatoliklardan yuzaga kelgan muomalar.

Internet yoki mobil aloqa uzilishi, tizimdagi xatoliklar to'lovni amalga oshirishga xalaqit berishi mumkin.

2. Ilova va to'lov tizimlari orqali olinadigan foizlar.



Ayrim xizmatlar uchun komissiyalar mavjud bo‘lib, ular foydalanuvchiga qo‘shimcha xarajat bo‘lishi mumkin.

3. Firibgarlik va kiberxavfsizlik muammolari

Hakerlik hujumlari, phishing (soxtalashtirilgan saytlarga yo‘naltirish) va shaxsiy ma’lumotlar o‘g‘irlanishi xavfi mavjud.

4. Raqamli tengsizlik va Riqional muomalar.

Internet va texnologiyalardan foydalanish imkoniyati bo‘lmagan aholining ayrim qatlamlari elektron to‘lovlarga kira olmaydi.

5. Shaxsiy ma’lumotlar maxfiyligining buzilishi

Ba’zida foydalanuvchilarning xarid odatlari yoki joylashuvi kabi ma’lumotlar uchinchi tomonlarga yetib borishi mumkin.

6. Markazlashmagan tizimlardagi xavf (masalan, kriptovalyutalar)

Tizim buzilsa yoki parol yo‘qolsa, pullarni qaytarib bo‘lmaydi. Narxlar juda o‘zgaruvchan — bu moliyaviy barqarorlikni buzishi mumkin.

7. Noqonuniy pul o‘tkazmalari

Katta miqdordagi pullarni mamlakatdan tezlikda noqonuniy yo‘llar bilan olib chiqib ketilishi va ularni izi yo‘qolishi.

8. Mavjud bo‘lmagan soxta elektron pullar

9. Kriptovalyutadagi frigarliklar



Yangi, hech qanday qiymatga ega bo'lmagan soxta kriptovalyutalar yaratiladi, reklama orqali "tez boyish imkoniyati" va'da qilinadi, ammo bu valyutalar ortida hech qanday texnologik yoki iqtisodiy asos bo'lmaydi (masalan, "pump and dump" sxemalari).

10. Soxta tranzaksion cheklar

Firibgarlar grafik dasturlar orqali to'lov amalga oshirilgandek qilib, soxta kvitansiyalar (PDF yoki skrinshotlar) yaratishadi.

11. Soxta balans tuzish

Ayrim xakerlar yoki tajribali firibgarlar dasturiy ta'minotdagi zaifliklar orqali o'z balanslarini sun'iy ravishda ko'paytirishadi. Ular bu "soxta balans" bilan boshqa foydalanuvchilarni chuv tushirishga harakat qilishadi.

Xulosa. Maqolada sanab o'tilgan elektron pullardan foydalanishning qulayliklari bilan bir qatorda, uning muayyan xavf-xatar va xususiy risklari ham mavjud bo'lib, bular bugungi kunda inson hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki hozirgi kunda hattoki ko'plab yosh bolalarning qo'lida ham shaxsiy plastik karta va uyali aloqa vositasi mavjud bo'lib, ular orqali o'zlarining muayyan ehtiyojlarini qondirishmoqda.

Biroq, ko'pchilik holatlarda ushbu texnologiyalarning ijobiy va salbiy jihatlari haqida chuqur o'ylab ko'rilmaydi, balki ular kundalik turmushda shunchaki vosita sifatida ishlatiladi. Aynan shunday sharoitda bu masalaga jiddiy e'tibor qaratish, xususan, elektron pullardan foydalanish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.



Zero, zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron to'lov vositalarining ommalashuvi bilan bir qatorda, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi, firibgarlik va moliyaviy noqonuniy harakatlar kabi salbiy holatlarning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va takomillashtirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir. Shu bois, elektron pullar bilan bog'liq risklarni baholash va ularni minimallashtirish bo'yicha tizimli yondashuvni shakllantirish, ushbu mavzuning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalari:

1. Electronic money (e-money) Zakaria Hasan
2. Cryptocurrency: Next Level in the Evolution of Money Ahmed Muzakkir Syed
3. Bank ishi va moliya asoslari Z.Mamadiyarov, A.Norov, O'.Haydarov
4. www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi markaziy banki
5. <https://finlit.uz>
6. <https://lex.uz/docs/-4803632> O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarning chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida